

## MINTAQA IQTISODIYOTIDA TIBBIY XIZMATLARNING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI

**Sapayev Azamat Rustamovich**

Urganch davlat tibbiyot instituti  
Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor  
E-mail: [sapayev\\_a@mail.ru](mailto:sapayev_a@mail.ru)

### **Annotatsiya**

Maqolada mintaqa iqtisodiyotida tibbiy xizmatlarning rivojlanish imkoniyatlari va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda Xorazm viloyati misolida tibbiyot infratuzilmasi, tibbiy muassasalar soni, kadrlar salohiyati va xususiy sektor dinamikasi statistik ma'lumotlar asosida baholangan. Tahlil natijalarida shifoxonalar va ambulatoriya muassasalari sonining ortishi aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirgani aniqlangan. Raqamli texnologiyalar, elektron tibbiyot tizimlari va ixtisoslashgan xizmatlarning rivojlanishi tibbiy xizmatlar sifatini oshirgani qayd etilgan. Tadqiqot tibbiyot sohasining inson kapitalini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish va hududiy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashdagi ahamiyatini asoslagan.

**Kalit so'zlar:** tibbiy xizmatlar, mintaqa iqtisodiyoti, sog'liqni saqlash, inson kapitali, tibbiy infratuzilma, xususiy sektor, raqamli tibbiyot, iqtisodiy samaradorlik.

### **Аннотация**

В статье проанализированы возможности развития медицинских услуг в региональной экономике и их влияние на экономическую эффективность. На примере Хорезмской области оценивались медицинская инфраструктура, количество медицинских учреждений, кадровый потенциал и динамика частного сектора на основе статистических данных. Результаты анализа показали, что увеличение числа больниц и амбулаторно-поликлинических учреждений расширило доступ населения к медицинским услугам. Было отмечено, что развитие цифровых технологий, электронных медицинских систем и специализированных услуг повысило качество медицинского обслуживания. Исследование обосновало значение системы здравоохранения в развитии человеческого капитала, повышении производительности труда и укреплении региональной экономической безопасности.

**Ключевые слова:** медицинские услуги, региональная экономика, здравоохранение, человеческий капитал, медицинская инфраструктура, частный сектор, цифровая медицина, экономическая эффективность.

### **Abstract**

The article analyzed the development opportunities of medical services in the regional economy and their impact on economic efficiency. Using Khorezm region as a case study, the research evaluated medical infrastructure, the number of healthcare institutions, human resource capacity, and private sector dynamics based on statistical data. The findings showed that the increase in hospitals and outpatient clinics expanded public access to healthcare services. The study identified that the development of digital technologies, electronic healthcare systems, and specialized medical services

improved the quality of healthcare delivery. The research justified the importance of the healthcare sector in strengthening human capital, increasing labor productivity, and improving regional economic security. The results highlighted the strategic role of healthcare services in regional socio-economic development.

**Keywords:** medical services, regional economy, healthcare, human capital, medical infrastructure, private sector, digital healthcare, economic efficiency.

## KIRISH

Mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligi bevosita inson resurslarining salomatligi va mehnat unumdorligiga bogʻliq. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda tibbiyot nafaqat ijtimoiy xizmat, balki iqtisodiy oʻsishning muhim drayveri sifatida namoyon boʻlmoqda. Sogʻliqni saqlash sohasiga yoʻnaltirilgan investitsiyalar inson kapitaliga qilingan eng samarali sarmoya hisoblanib, u mehnat resurslarining faolligini oshiradi va ijtimoiy xarajatlarni optimallashtiradi.

Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, “Oʻzbekiston-2030” strategiyasi tibbiyot tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarishni, aholining oʻrtacha umr koʻrish davomiyligini 78 yoshga yetkazishni maqsad qilgan[1]. Mintaqaviy darajada tibbiy xizmatlar bozorini diversifikatsiyalash, xususiyl sektorini ragʻbatlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish mintaqa iqtisodiy xavfsizligini taʼminlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqa iqtisodiyotida tibbiyot sohasining rivojlanishi yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Michael E. Porter “Diamond Model” (Olmos modeli) nazariyasi ishlab chiqilgan boʻlib, unga koʻra hududiy raqobatbardoshlik toʻrtta asosiy omil orqali shakllanadi:

1. Ishlab chiqarish omillari;
2. Ichki talab hajmi;
3. Qoʻllab-quvvatlovchi tarmoqlar;
4. Korxonalar strategiyasi va raqobat muhiti[2].

Mazkur modelni tibbiyot sohasiga tatbiq etadigan boʻlsak, hududlarda: zamonaviy tibbiyot infratuzilmasining mavjudligi; malakali kadrlar; farmatsevtika va IT kabi yordamchi tarmoqlar rivoji; sogʻlom raqobat muhiti; innovatsion texnologiyalar joriy etilishi mintaqaviy iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon boʻladi.

Belova L.A. va boshqalar tibbiyotning mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlashdagi rolini oʻrganib, sifatli tibbiy yordam mehnat unumdorligini oshirish quroli ekanligini isbotlaydi[3]. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti ekspertlari fikriga koʻra: “Sogʻliqni saqlash tizimiga investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni taʼminlaydi” [4].

Xususan, Pulatova N.D. xususiyl tibbiyotning iqtisodiy tendensiyalarini tahlil qilib[5], ushbu tadqiqot 2017-yildan buyon xususiyl klinikalar soni 3500 tadan 9000 taga yetganini va ular bozorning 35% qismini egallaganini koʻrsatadi.

Jumanazarov D.I. (2024) mintaqa iqtisodiyotining mohiyatini ochib berib, sogʻliqni saqlash tizimi ijtimoiy strukturaning asosi ekanligini taʼkidlaydi[6].

Qurbanov J. sogʻliqni saqlash tizimida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining hududiy jihatlari va investitsion imkoniyatlari tahlil qilingan[7].

Makhamadjonova va Khayitboyeva Oʻzbekistonda tibbiy turizm iqtisodiyotning istiqbolli yoʻnalishlaridan biri ekanligini taʼkidlaydi. Mualliflar fikricha, tibbiy turizm sogʻliqni saqlash va turizm sektorining integratsiyasini kuchaytirib, hududiy iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi [8].

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqotda tizimli yondashuv, statistik tahlil, qiyosiy baholash va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Mintaqada tibbiy xizmatlarning rivojlanish holatini baholash uchun Xorazm viloyatining 2010–2024-yillarga oid rasmiy statistik maʼlumotlari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida shifoxonalar soni, ambulatoriya-poliklinika muassasalari, vrachlar soni va shifoxona oʻrinlari boʻyicha koʻrsatkichlar oʻrganildi. Tibbiyot infratuzilmasining iqtisodiy samaradorlikka taʼsirini aniqlash maqsadida dinamik qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Xususiy sektor ulushi, raqamli tibbiyot texnologiyalarining joriy etilishi hamda tibbiy xizmatlar sifati oʻrtasidagi bogʻliqlik statistik usulda baholandi. Tadqiqotda Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti va milliy statistika maʼlumotlari asosiy axborot manbasi sifatida qoʻllanildi. Olingan natijalar asosida mintaqada tibbiyot xizmatlarini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari va iqtisodiy imkoniyatlari yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Mintaqada tibbiyot sohasining rivojlanish holati aholi salomatligi, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy oʻsish bilan chambarchas bogʻliq boʻladi. Bu orqali mintaqada tibbiyot sohasining rivojlanish xususiyatlari aniqlanadi. Bu borada Oʻzbekiston Respublikasida tibbiy xizmatlarning oʻziga xos xususiyatlari koʻrib chiqilgan. Xususan, unda sohaning rivojlanishiga taʼsir qiluvchi omillar tadqiq qilingan. Uning rivojlanishidagi mintaqaviy farqlar koʻrsatilib, statistik materiallar tahlil qilingan hamda rivojlanish imkoniyatlari boʻyicha takliflar berilgan[9]. Shular boʻyicha tibbiyot sohasi samaradorligi tibbiy xizmatlar sifatiga va infratuzilma, kadrlar salohiyati va moliyaviy taʼminot darajasiga bogʻliq boʻladi. Shu bois, tibbiyot sohasining hozirgi holatini tahlil qilish uning muammolari va rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Mintaqada tibbiyot muassasalari soni ortib bormoqda. Davlat shifoxonalari, poliklinikalar, xususiy tibbiyot markazlari va ixtisoslashgan klinikalar aholiga xizmat koʻrsatmoqda. Bu borada tibbiy xizmatlar sifati yildan-yilga yaxshilanib bormoqda. Yangi diagnostika usullari, laboratoriya xizmatlari va zamonaviy davolash texnologiyalari joriy etilmoqda. Tibbiyot sohasi asosan davlat budjeti hisobiga moliyalashtiriladi. Sohada xususiy sektor ulushi ham ortib bormoqda.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, Xorazm viloyatida tibbiyot muassasalari soni va kadrlar taʼminotida ijobiy oʻsish kuzatilmoqda.

**1-jadval**
**Xorazm viloyatida tibbiyot sohasi ko'rsatkichlari tahlili<sup>1</sup>**

Ko'rsatkichlar	2010-yil	2014-yil	2024-yil
Shifoxonalar soni, dona	33	42	83
Ambulatoriya-poliklinika muassasalari	302	270	502
Vrachlar soni, ming kishi	4,0	4,8	6,2
Shifoxona ko'ykalari, ming dona	6,5	6,8	8,6

Xorazm viloyatida sog'liqni saqlash tizimining rivojlanish ko'rsatkichlari hududiy iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilgan rivojlanish tendensiyalarini aks ettiradi. 2010-2024-yillar davomida tibbiyot infratuzilmasi, tibbiy xizmatlar hajmi hamda kadrlar salohiyatida sezilarli o'sish kuzatilgan. Mazkur jarayon hududda inson kapitalini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shifoxonalar sonining ortishi:

- tibbiy xizmatlar qamrovini kengaytiradi;
- aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshiradi;
- hududiy demografik barqarorlikni ta'minlaydi;
- yangi ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, tibbiyot infratuzilmasining rivojlanishi xizmatlar sektorining kengayishiga va hududiy yalpi mahsulot hajmining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2010-yilda 302 tani tashkil etgan ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni 2024-yilda 502 taga yetgan. Bu birlamchi tibbiy xizmatlarning hududlar bo'yicha kengayganligini anglatadi.

Birlamchi tibbiy xizmatlarning rivojlanishi:

- kasalliklarni erta aniqlash;
- profilaktik xizmatlarni kuchaytirish;
- shifoxonalarga yuklamani kamaytirish;
- sog'liqni saqlash xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, profilaktik tibbiyotga yo'naltirilgan har bir investitsiya kelajakdagi davolash xarajatlarini bir necha barobar kamaytiradi. Shu sababli ambulator xizmatlarning kengayishi iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi omil sifatida baholanadi.

Viloyatda vrachlar soni 2010-yildagi 4 ming kishidan 2024-yilda 6,2 ming kishiga yetgan. Bu esa malakali tibbiyot kadrlariga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganligini ko'rsatadi.

Tibbiyot kadrlarining ko'payishi quyidagi iqtisodiy natijalarni beradi:

- xizmat sifati yaxshilanadi;
- aholi salomatligi mustahkamlanadi;
- mehnat unumdorligi oshadi;
- vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik kamayadi.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi. <https://xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>

Kadrlar salohiyatining oshishida vrachlar va tibbiyot xodimlari soni ortib borgan. Ayrim nomutanosibliklar sifatida oʻrta tibbiyot xodimlari sonida barqarorlik va soʻnggi yillarda esa kamayish holati kuzatilgan. Ushbu tibbiyot sohasi tizimida ijobiy oʻzgarishlar ustuvor hisoblanadi. Bu esa aholi salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi. Biroq, kadrlar tarkibidagi muvozanatni taʼminlash va xizmatlar sifatini yanada oshirish muhim vazifa boʻlib qolmoqda. Shular bilan birgalikda, mintaqada tibbiyot sohasining rivojlanish tendensiyalari quyidagi yoʻnalishlarda namoyon boʻlmoqda:

- xususiy sektorning oʻsishi. Xususiy tibbiyot muassasalari soni sezilarli darajada koʻpaydi. Bu esa raqobat muhitini shakllantirib, xizmatlar sifati oshishiga xizmat qilmoqda.

- raqamli tibbiyotning rivojlanishi. Axborot texnologiyalarining joriy etilishi tibbiyot sohasida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron navbat tizimlari, onlayn maslahatlar va elektron tibbiy maʼlumotlar bazasi joriy etilmoqda.

- ixtisoslashgan xizmatlarning kengayishi. Kardiologiya, onkologiya, xirurgiya va boshqa sohalarda ixtisoslashgan markazlar tashkil etilmoqda. Bu esa aholiga yuqori sifatli tibbiy xizmat koʻrsatish imkonini oshiradi.

Mintaqada tibbiyot sohasining rivojlanishi iqtisodiyotga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Yaʼni, mehnat unumdorligi oshadi, aholi salomatligi yaxshilanadi, ijtimoiy xarajatlar kamayadi va yangi ish oʻrinlari yaratiladi. Ushbu omillar mintaqaning umumiy iqtisodiy oʻsishiga xizmat qiladi. mintaqada tibbiyot sohasining rivojlanish holati turlicha ijobiy tendensiyalarga ega. Unga asosan, infratuzilmani modernizatsiya qilish, kadrlar salohiyatini oshirish va moliyalashtirish tizimini takomillashtirish sohaning asosiy vazifasi boʻlib hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish esa tibbiyot sohasining barqaror rivojlanishini taʼminlaydi. Bu esa aholi salomatligini yaxshilash va mintaqaning iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, Xorazm viloyatida tibbiyot sohasi:

- ijtimoiy infratuzilmaning strategik tarmogʻi;
- inson kapitalini rivojlantiruvchi omil;
- xizmatlar sektori drayveri;
- hududiy iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlovchi mexanizm sifatida shakllanmoqda.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Tadqiqot natijalari Xorazm viloyatida tibbiy xizmatlar tizimi mintaqada iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanayotganini koʻrsatdi. 2010–2024-yillar davomida shifoxonalar, ambulatoriya-poliklinika muassasalari va vrachlar sonining ortishi aholiga koʻrsatilayotgan tibbiy xizmatlar qamrovini kengaytirgan. Tibbiyot infratuzilmasining rivojlanishi aholi salomatligini yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish va hududiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga ijobiy taʼsir koʻrsatgan.

Tahlillar natijasida xususiy tibbiyot muassasalari sonining koʻpayishi raqobat muhitini kuchaytirgani va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qilgani aniqlandi. Raqamli texnologiyalar, elektron navbat tizimlari va onlayn maslahat xizmatlarining joriy etilishi tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirgan. Ixtisoslashgan markazlarning

tashkil etilishi esa aholiga zamonaviy va sifatli tibbiy yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirgan.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- mintaqada zamonaviy tibbiyot infratuzilmasini rivojlantirish va tibbiy muassasalarni texnologik modernizatsiya qilish;
- tibbiyot sohasiga xususiy investitsiyalarni jalb qilish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish;
- raqamli sog'liqni saqlash tizimlarini joriy etish orqali xizmat ko'rsatish tezligi va sifati oshirish;
- malakali vrachlar va o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- profilaktik tibbiyot va birlamchi tibbiy xizmatlarni kengaytirish orqali sog'liqni saqlash xarajatlarini optimallashtirish;
- tibbiy turizm imkoniyatlaridan foydalanish asosida hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi tibbiyot xizmatlari sifatini oshirish, aholi salomatligini mustahkamlash hamda mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr PF-158-son "O'zbekiston-2030" Strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Michael E. Porter Competitive Advantage of Nations New York: Free Press, 1990.
3. World Health Organization. Health Systems Strengthening Glossary. Geneva, 2023.
4. Belova L.A. va boshqalar (2019) Роль системы здравоохранения в обеспечении экономической безопасности региона. Вестник Академии знаний
5. Pulatova N.D. (2026). Развитие частной медицины в Узбекистане: экономические тенденции и инвестиционный потенциал. Zenodo, Tashkent, <https://doi.org/10.5281/zenodo.19485116>
6. Jumanazarov D.I. (2024). Mintaqa iqtisodiyoti tushunchasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, Urganch, 68-73 betlar.
7. Qurbanov J.(2024)"Sog'liqni saqlash sohasida davlat xususiy sherikligini tashkil etishning mintaqaviy xususiyatlari" "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali.
8. Makhamadjonova M., Khayitboyeva T. (2024). The Role of Medical Tourism in the Development of Tourism Industry in Uzbekistan. Science & Innovation, 127-130 betlar.
9. Safarova N.I. Specific features of medical services in the republic of Uzbekistan. // "Экономика и социум" №6(133)-1 2025. — p. 688.



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhih:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610  
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**